

UO‘K:

TOKNING ASOSIY SO‘RUVCHI ZARARKUNANDALARI BIOLOGIYASI VA UNING ZARARINI ANIQLASH.

Kuzibaeva Sevaraxon Dilshodbekovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotekhnologiyalar instituti.
assistent

Annotatsiya. Tok zararkunandalari. Hayot kechirishi. Kurash choralari. Tashkiliy xo‘jalik va o‘simlik bardoshlilikini oshiradigan agrotekhnika choratadbirlar.

Kalit so‘zlar: tok, zararkunanda, lichinka, tuxum, zararini aniqlash.

БИОЛОГИЯ ОСНОВНЫХ СОСУЩИХ ВРЕДИТЕЛЕЙ ВИНОГРАДНОЙ ЛОЗЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЕЕ ВРЕДА

Кузибаева Севарахон Дилшодбековна
Андижанский институт сельского
хозяйства и агротехнологий.
ассистент

Аннотация. Вредители виноградной лозы. Живая жизнь. Контрмеры. Организационное управление и агротехнические мероприятия, овышающие толерантность растений.

Ключевые слова: лоза, вредители, личинки, яйца, обнаружение повреждений.

THE BIOLOGY OF THE MAIN SUCKING PESTS OF THE VINE AND THE DETERMINATION OF ITS HARM.

Kuzibaeva Sevarakhan Dilshodbekovna
Andijan Institute of Agriculture and agrotechnologies.
assistent

Abstract. Vine pests. Living life. Countermeasures. Organizational management and agrotechnical measures that increase plant tolerance.

Key words: vine, pest, larvae, eggs, damage detection.

Kirish. Tok qimmatbaho subtropik o'simlik. Uning mevasi o'zining parhezlik va oziqaligi jihatidan inson organizmi uchun eng zarur mahsulot hisoblanadi. Pishib yetilgan uzum tarkibida, ayniqsa kishmish navlarida 28-30 %gacha organizm tomonidan tez o'zlashtiriladigan qandlarglyukoza, fruktoza va saxaroza bor. Fruktoza oshqozon osti bezining ishtirokisiz tez singadi. Shu tufayli qand kasalligi (qandli diabet)ning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yangi uzilgan uzum tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan olma, vino, limon, qahrabo, shavel, chumoli va boshqa bir qancha organik kislotalar, kaliy, kalsiy, fosfor, natriy kabi mineral tuzlar, meva po'sti tarkibida rang beruvchi moddalar (pigmentlar), dubil moddalar bor.

Tok o'simligiga bir qator zararkunandalar zarar yetkazadi. Bulardan keng tarqalgan zararkunandalari unsumon uzum va komstok qurtlari, uzum kanasi, uzum sikadasi, shingil qurti, akatsiya soxta qalqondori. Ularning zarari natijasida meva tarkibidagi vitamin va minerallar miqdorining o'zgarishi hamda hosildorlikning sezilarli kamayishi olib keladi. Bu zararkunandalarning ko'pchiligi sanchib-so'ruvchi og'iz apparatiga ega bo'lib, asosan tokning yangi o'sib chiqqan barg va novdalarini zararladi. Unsimon uzum va komstok qurtlari (chervetslar). Har ikkala hasharotning tuzilishi hamda hayot kechirishi bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun birga ta'riflanadi. Bu hasharotlar orasida ayniqsa, komstok qurti kengning keng bo'lib, uni o'zbekiston barcha tarmoqlarida uchratish mumkin. Unsimon uzum qurti esa keng tarqalgan bo'lmasada, bazan uzumga kuchli huruj qilishi mumkin. Ta'rifi. Bu xasharotlarning tashqi tuzilishida jinsiy dimorfizm, yani turli shakllanish keskin ko'zga tashlanadi. Urg'ochisi qanotsiz, beso'naqay, kattaligi 3,5-4 mm keladi, sekin harakatlanadi, o'ziga xos yassi shaklga ega, tanasining atrofida yetarlicha uzunlikka ega 17 juft mumsimon ip qurishda o'siqlari bor. Bu o'sishlarning oxirgi

jufti qolganlaridan uzun bo'lib, "dum" shaklida bo'ladi. Har ikkala turga mansub urg'ochi zotlarni ayni shu belgi ajratib turadi: komstok qurtining ushbu o'simtalari uzun bo'lib, tananing yarmigacha keladi, uzum unsimon qurtining o'simtalari esa kaltaroq (tanasining uchdan yoki to'rtidan biriga teng). Qurtning tusi sarg'ish-jigarrang bo'lib, at maxsus bezlar mahsuli - oq mumsimon qoplama bilan egallangan. Erkak zoti mayda (1,2-1,5 mm), bir juft qanotli hasharot bo'lib, tanasining oxirida ikkita dum ipi, uzunligi esa uzun cho'tsimon mo'ylovi mavjud. Hayot kechirishi. Komstok qurti voyaga etmagan lichinkalik shaklida, uzum unsimon qurti esa tuxum shaklida, asosan po'stloqlar ostida hamda turli pana joylarda qishlab chiqadi. Komstok qurtining lichinkalari, uzum unsimon qurtining esa voyaga yetgan urg'ochi zotlari bahorda, mart oyining oxiri aprelning boshlarida paydo bo'ladi. Ular oziqlangach, voyaga yetganlari asosan partenogenetik (erkaksiz) tuxum qo'yib, ko'paya boshladi. Har bir urgochi zot 15-30 kun ichida, jami 250-600 ta tuxum qo'yishi mumkin. Tuxumdan ochib chiqqan lichinka 3 yoshni boshdan kechiradi. Uchinchisi tinchlik davrni kechib, yana yetuk urg'ochi zotga aylanadi. Bir mavsumda unsimon qurtlar 3-4 bog'in berishi mumkin. Har ikkala unsimon qurtlarning barcha hayotiy sharoitida qishlab qolishi mumkin. Lekin komstok qurtining faqat ovisak – to'rvadagi tuxumlari, uzum unsimon qurtining esa faqat yetilmagan urg'ochi zotlarigina omon qoladi, qolganlari qirilib ketadi. Zarari. Unsimon qurtlar hosil uzum emas, turli daraxtlarga (hammaxo'r): olma, nok, o'simliklari sitrus, anjir, anor, tut va boshqa o'simliklarga ham huruj qilishi mumkin. Bu zararkunandalarning lichinkalari sanchib-so'ruvchi og'iz apparati bilan o'simliklarning turli a'zolarini shikastlashi mumkin: barg, tana, novda, meva va boshqalar. Shikastlangan o'simliklar o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, hosil sifatsiz bo'lib, 50-70% gacha quriladi. Unsimon qurtlar narsani tok (uzum) hamda barcha boshqa daraxtlardan oqib tushayotgan shiradan yoki chumolilar ko'payganidan bilish mumkin.

Kurashish choralari: 1. Tashkiliy-xo'jalik va o'simlik bardoshlilikini oshiradigan, agrotexnik chora-tadbirlar. 2. Biologik usul sifatida unsimon qurtlarning

samarali kushandasi - pseudoficus (pseudaphicus malinus gah.) Qo'zg'atuvchisi. Undan tabiatda bu qurtlarning boshqa samarali kushandasi ham bor. Masalan, bona mushkasi (pashshasi) - leucopisbona rohd. Uning larvae comstock kurtining ko'plab qismini kiradi. 3.kimyoviy kurash tarzida turli sintetik pyrethroid hamda organofosfor insektisidlar qo'llaniladi. Toklarga mavsum mobaynida 2-3 mart ishlov berish lozim. Oxirgi kelishi uzumidan 30 kun oldin tugallanishi shart.

Shingil barg o'rovchisi (Polychrosis botrana) – O'zbekistonda, qo'shni davlatlarda, Yevropa, Afrika, Shimoliy Amerika qit'alarining ko'pgina davlatlarida tarqalgan. Zararkunandaning kapalagi qanotlarini yozganda 12-13 mm keladi. Oldingi qanotlari zaytun-qo'ng'ir bo'lib, ko'ndalangiga ikkita och bog'i bor. Qanotining oldingi chekkasida, o'rtasi yaqinida qora dog'lardan iborat xira jilosi bor. Orqadagi qanotlari kul rang, asosi tashqi chekkasiga qaraganda ochroq bo'ladi. Tuxumining uzunligi taxminan 0,5-0,7 mm; rangi sariq, ust tomoni bir oz bosilgan. Qurtining uzunligi 12 mm gacha boradi, dastlab oqimtir (boshi qora) bo'ladi, keyinchalik sarg'imtir yoki yashilroq, boshi esa och qo'ng'ir tusga kiradi. G'umbagining uzunligi 5-7 mm, jigar rang tusda bo'lib, 10-12 mm kattalikdagi dugsimon oq pillaning ichida turadi. Shingilbarg o'rovchisi po'stloq ostida, poya yoriqlarida, barglar ostida g'umbaklik stadiyasida qishlaydi. Aprel-may oylarida kapalaklari uchib chiqadi, hamda tok shingillariga tuxum qo'yadi, tokning qorong'iroq joylaridagi shingillarini xush ko'radi. Urg'ochisi umrida 50-60 ta tuxum qo'yadi. May oxirida qurtlarning birinchi avlodi o'sib yetishadi, ular asosan shingil bilan oziqlanadi va boshqa ko'pgina o'simliklarda ancha kamroq bo'ladi. Qurtlarning birinchi nasli tokning turli navlariga birday zarar yetkazadi. Iyulning birinchi yarmida tok barg o'rovchisining ikkinchi nasli, avgustning yarmiga kelib-uchinchi nasli va oktabrning yarmi-oxirlariga kelib-to'rtinchi nasli paydo bo'ladi. To'rtinchi, qisman uchinchi naslning g'umbaklari qishlaydi. Birinchi nasl qurtlaridan boshqa qurtlar avval g'o'ra bilan, so'ngra pishayotgan uzum bilan oziqlanadi: yosh qurtlar uzum donasini ichidan yeyaveradi, o'sgan qurtlar esa tashqaridan o'yib kiradi. Qurtlar

namni hohlaganidan ikkinchi nasldan boshlab yerda qoldirilgan yoki uzum boshi g'uj bo'ladigan toklarga ko'proq tuxum qo'yadi. Uchinchi va to'rtinchi nasl qurtlaridan zararlangan uzum boshlari ko'pincha irib ketadi, yerga tegib turgan, shuningdek zich uzum boshlari ayniqsa ko'p iriydi. To'rtinchi nasl qurtlari hasharotning qishlaydigan joylarida g'umbakka aylanadi, dastlabki uch nasl esa buklangan barglar ostida, poya yoriqlarida va tuproq donalari ostida, asosan uzum boshlarining orasida g'umbakka aylanadi. Shingil barg o'rovchisining zarari yuqori bo'lib, ushbu zararkunandani hisobga olishda har bir avlodi uchun alohida 3 martadan kuzatuv ishlari olib boriladi. Birinchi hisoblash ishlari tahminan shonalash yarmi, ikkinchisi shonalashning ikkinchi yarmida, uchinchisi – uzumlarni yig'ishtirib olish davrida o'tkaziladi. Uzumlarni shingil (tok) bargo'rovchisi bilan zararlanishini hisoblash vaqtida har 20 ga maydonda 10 namuna (uchastka) tuplari olinadi. Har bir tup namunada umumiy shingillar soni va ularni dastlabki kartonga yozib boriladi. Bundan tashqari, har bir tup bo'yicha zararlangan shingil darajasi (kuchsiz, o'rta, kuchli), keyinchalik ko'z chamasi yo'li bilan aniqlanadi. Zararlanish bo'yicha o'rtacha foizi yozgi kuzatuv daftariga yozib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Xo'jaev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. – Toshkent: Navro'z, 2015. – 552 b.
2. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi zararkunandalari. – Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962.
3. Arslanov M.T., Po'latov Z.A., Aliev Sh.K. va boshqalar. Mevali bog'lar, dukkakli don ekinlar poliz va sabzavot hamda boshqa turdagi qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalari, kasalliklarini tarqalishini hisobga olish. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 364 b.
4. <https://www.hufocw.org/Download/file/6646>